
35 nafar xotin-qizlarga sertifikatlar topshirildi

Farg'ona shahar hokimligi Oila va xotin qizlar bo'limi tomonidan tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan xotin-qizlarni o'zlari qiziqqan sohaga o'qitish maqsadida o'quv kurslari tashkil etilgan.

Farg'ona shahridagi barcha mahalla fuqarolar yig'inlarda o'zini o'zi band qilmagan, tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan xotin-qizlar ro'yxatlari shakllantirib ular bosqichma-bosqich o'qitilib kelinmoqda. Shu kunga qadar shahardagi 150 ga yaqin xotin-qizlarni malakali ustozlar tomonidan tadbirkorlik yo'nalishlari bo'yicha o'qitilib, boshlang'ich tushunchalar berildi. Shuningdek, har bir o'quvchiga sertifikatlar topshirildi.

Bir hafta davomida shahardagi "Bahor" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan xotin-qizlarning 35 nafarlari o'quv mashg'ulotlariga jalb qilindilar. O'quv kursini muvaffaqiyatli tamomlagan xotin-qizlarga sertifikatlarini berish jarayoni ham ko'tarinki ruxda o'tdi.

Tadbirda mahalla raisi Y.Maqsudov hamda xotin-qizlar faoli M.Xamidovalar ishtirok etishdi. Bayramona dasturxon yozildi. Sertifikat berish marosimi o'yin-kulgu bilan yanada fayzli o'tdi.

Tadbirkorlar uyushmasi rahbari I.Mamatxonova tomonidan 35 nafar xotin-qizlarga sertifikatlar taqdim etildi. Endilikda xotin-qizlar o'zlari tanlagan yo'nalishlari bo'yicha ish faoliyatlarini davom ettirishadi.

2022-08-17 15:19:15